

IQTISODIYOTDA RAQOBAT VA MONOPOLIYANING MOHIYATI***Imamov N.P.****SamISI ‘Tillarni o’qitish’’ kafedrasi katta o’qtuvchisi****Shodiyev S.S.****SamISI IK-524-guruh talabasi*

Annatatsiya: Ushbu maqolada raqobat va monopolianing mohiyati haqida. Raqobat va monopolianing jamiyat uchun afzalliklari va kamchiliklari. Monopolianing iqtisodiyotga foyda va zararlari, hamda monopoliyaga qarshi kurashish uchun hozirgi kunda qanday choralar ko‘rilayotganligi haqida bilib olishingiz mumkin.

Kalit so‘z: raqobat, monopoliya, bozor iqtisodiyoti, halol raqobat, g‘irrom raqobat, iste’molchi, narx siyosati, narx erkinligi.

Annotation: This article is about the nature of competition and monopoly. Advantages and disadvantages of competition and monopoly for society. You can learn about the benefits and harms of monopoly to the economy, and what measures are currently being taken to fight against monopoly.

Key word: competition, monopoly, market economy, fair competition, unfair competition, consumer, price policy, price freedom.

Аннотация: данная статья посвящена природе конкуренции и монополии. Преимущества и недостатки конкуренции и монополии для общества. Вы сможете узнать о пользе и вреде монополии для экономики, а также о том, какие меры в настоящее время принимаются для борьбы с монополией.

Ключевые слова: конкуренция, монополия, рыночная экономика, добросовестная конкуренция, недобросовестная конкуренция, потребитель, ценовая политика, свобода цен.

Bozor mexanizmining asosiy tarkibiy qismlaridan biri raqobat hisoblanadi. Bozor iqtisodiyoti o’zining yetuklik darajasi va rivojlanish xususiyatlaridan qat’iy nazar raqobatning mavjud bo‘lishini taqozo etadi. Shu bilan birga, bozor iqtisodiyoti rivojlanib borishi bilan raqobatchilik munosabatlari ham takomillashib, o‘z shakllarini o’zgartirib boradi. «Raqobat bo‘lmasa, bozor iqtisodiyotini barpo etib bo‘lmaydi. Raqobat bozorning asosiy sharti, aytish mumkinki, uning qonunidir». Raqobat bozor iqtisodiyotining va umuman tovar xo’jaligining eng muhim belgisi, uni rivojlantirish vositasi hisoblanadi. Raqobatning iqtisodiy mazmunini tushunib olish unga turli tomondan yondashishini talab qiladi. Mustaqil tovar ishlab chiqaruvchilar, korxonalar o’rtasidagi raqobat tovarlarni qulay sharoitda ishlab chiqarish va yaxshi foyda keltiradigan narxda sotish, umuman iqtisodiyotda o’z mavqeini mustahkamlash uchun kurashdan iboratdir. Bunda ular kerakli ishlab chiqarish vositalari, xomashyo va

materiallar sotib olish, ishchi kuchini yollash uchun ham kurashadi. Ishlab chiqaruvchilar va resurslarni yetkazib beruvchilar o‘rtasidagi raqobat bozor munosabatlari rivojlangan, iqtisodiyot to‘liq erkinlashgan sharoitda yorqin namoyon bo‘ladi. Raqobat iste’molchilar orasida ham yuz beradi: ular tovarlarni qulay va arzon narxlarda sotib olishga harakat qiladilar, yani xaridor har bir sarflangan pul birligi evaziga koproq naflilikka ega bolishga harakat qiladilar. Arzon va sifatlari tovari sotib olish uchun kurashadilar. Shunday qilib, raqobat ko‘p qirrali iqtisodiy hodisa bo‘lib, u bozorning barcha subyektlari o‘rtasidagi murakkab munosabatlarni ifodalaydi. Raqobat-bozor subyektlari iqtisodiy manfaatlarning to‘qnashuvidan iborat bo‘lib, ular o‘rtasidagi yuqori foyda va ko‘proq naflilikka ega bo‘lish uchun kurashni anglatadi. Shu sababli raqobatning asosiy sohasi bozor hisoblanadi. Raqobatning halol va g‘irrom turlari ham mavjud. Halol raqobat bu-ma'lum bir belgilab berilgan qonun qoidaga asoslanib hammaga maqbul usullar bilan raqobat olib borilishiga aytildi. G‘irrom raqobatda esa ta’qiqlangan va qoralangan usullarda, yani qalloblik, ko‘zbo‘yamachilik, so‘zida turmaslik, aldash, iqtisodiy jesuslik, qo‘poro‘vchilik va hatto jismoniy zo‘ravonlik kabi jinoyatkorona usullar qo‘llaniladi. Bozor iqtisodiyoti aslida faqat halol raqobatni tan oladi. Raqobat va monopoliya bir-biriga teskari bo‘lgan tushuncha. Monopoliya qarobatga zid, chunki u tovar ishlab chiqaruvchiga tanho hukmronlikni ta’minlab, o‘zaro bellashuv uchun sharoit qoldirmaydi. Monopoliyanı quyidagicha ta’riflash o‘rinli: monopoliya — monopol yuqori narxlarni o‘rnatish hamda monopol yuqori foyda olish maqsadida tarmoqlar, bozorlar va yaxlit makroiqtisodiyot ustidan hukmronlikni amalga oshiruvchi yirik korxonalarining birlashmalari. Monopoliyalar vujudga kelishining moddiy asosi ishlab chiqarishning to‘planishi hisoblanadi. Ishlab chiqarishning to‘planishi ishlab chiqarish vositalari, ishchi kuchi hamda mahsulot ishlab chiqarish hajmining yirik korxonalarda to‘planishini namoyon etadi. Monopoliya jamiyat uchun zararlidir. Chunki monopoliya bor joyda iqtisodiy rivojlanish bo‘lmaydi. Iqtisodiy rivojlanish bo‘lmagan davlat asta-sekin yo‘q bo‘la boshlaydi. Jahondagi barcha rivojlangan davlatlarda bo‘lgani kabi O‘zbekistonda ham raqobat bo‘yicha davlat siyosati amalga oshiriladi. Shu maqsadda 1996 yil 15 martda Moliya vazirligi huzurida Monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish qo‘mitasi tashkil etildi. Keyinchalik, u mustaqil davlat qo‘mitasiga aylantirildi. O‘zbekistonda raqobatchilik muhitini vujudga keltirishda narx bilan raqobatlashuv usuli tanlandi va narxlar erkin qo‘yib yuborildi. "Monopoliyanı kamaytirish uchun esa davlatimiz tomonidan monopoliyaga qarshi kurashish tizimlarini yanada kuchaytirilishi, misol uchun ishlab chiqarish qilayotganlar faqatgina bitta viloyatda emas balki uning filiallarini ko‘paytirish hamda to‘liq bo‘lmagan holda bozor iqtisodiyotiga davlatning aralashuvi(nazorati) bo‘lishi maqsadga muvofiq bo‘ldi. Tabiiy monopoliyalarning ustunligi hamda monopoliyaga qarshi samarali tartibotlarni amalga oshirish, haqiqiy raqobat muhitini shakllantirish, korxonalarining va ular

tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotning, umuman mamlakat iqtisodiyotining raqobatdoshligini oshirishni rag‘batlantirish borasidagi tashkiliy va amaliy choratadbirlarni shakllantirish bilan bog’liq ko’pgina masalalar hamon hal etilmay qolmoqda. Shu jihatdan olganda O’zbekiston Respublikasining yaqinda qabul qilingan — Raqobat to’g’risidagi qonunida nazarda tutilgan me‘yor va talablarni amalga oshirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar ko'rishi katta ahamiyat kasb etadi. Bunda tovar va moliya bozorlarida raqobatni cheklashga hamda ustunlik mavqeini suiiste‘mol qilishga olib keladigan xatti-harakatlarga yo‘l qo‘ymaslikka, shuningdek, nohalol raqobatni, tovarlar (ishlar, xizmatlar)ning narxlarini sun’iy ravishda oshirish yoki tushirib yuborishni taqiqlashga alohida e‘tibor qaratilishi lozim deb hisoblayman. Bu ishlarni faollashtirish uchun qilinayotgan sa’y-harakatlarni jamlash, xususiylashtirish, monopoliyadan chiqarish va raqobatni rivojlantirish bo'yicha ishlarning bajarishini ta‘minlaydigan davlat institutlarini yanada mustahkamlash muhim ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI:

1. Xaydarov, B., & Saitov, S. (2022). Raqamli iqtisodiyot tushunchasi va afzalliklari. Zamonaviy Innovatsion Tadqiqotlarning Dolzarb Muammolari Va Rivojlanish Tendensiyalari: Yechimlar Va Istiqbollar, 1(1), 634–635. Retrieved from <https://inlibrary.uz/index.php/zitdmrt/article/view/5390>
2. Baxrom Xolmurodovich Xaydarov, Sirojiddin Abduvaliyevich Saitov RAQAMLI IQTISODIYOT TUSHUNCHASI, AFZALLIKLARI AMALIY AHAMIYATI VA XORIJIY TAJRIBA // Academic research in educational sciences. 2022. №5. URL: <https://cyberleninka.ru/article/n/raqamli-iqtisodiyot-tushunchasi-afzalliklariamaliy-ahamiyati-va-xorijiy-tajriba> (дата обращения: 29.11.2022).
3. Uchkun S., Dilshod N. process of identifying the significant accounts in the revenue cycle //Journal of marketing, business and management. – 2022. – T. 1. – №. 1. – C. 32-36.
4. Dilshod N. xalqaro standartlar asosida korxonalarda tushumlar auditini tashkil qilish bosqichlari va dastaklarini takomillashtirish //International Journal of Contemporary Scientific and Technical Research. – 2022. – C. 105-110.
5. Najmiddinov D. R., Shodlikov D. E. the effect of the secret economy in a daily life of the society //Talqin va tadqiqotlar ilmiyuslubiy jurnali. – 2022. – T. 1. – №. 1A. – C. 56-59.
6. Akramovich N. A. the priority of using innovative technologies in the agricultural education system //Journal of Academic Research and Trends in Educational Sciences. – 2022. – T. 1. – №. 10. – C. 185-191.